


## Hazrat Alisher Navoiy tavalludining 584 yilligiga bag'ishlangan ilmiy anjuman o'tkazildi

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti, Alisher Navoiy nomidagi davlat adabiyot muzeyi, Bashkent universiteti Alisher Navoiy nomidagi ilmiy-tadqiqot markazi (Turkiya), Xo'jand davlat universiteti (Tojikiston), Ozarbayjon bilimlar akademiyasi (Ozarbayjon), Nizomiy Ganjaviy nomidagi adabiyot instituti (Tojikiston), Qirg'iz-o'zbek xalqaro universiteti (Qirg'iziston) bilan hamkorlikda Alisher Navoiy ilmiy merosini o'rganish masalariga bag'ishlangan ilmiy anjuman o'tkazildi.



Unda navoiyshunos olimlar, xorijda Navoiy ijodini tadqiq qilayotgan mutaxassislar, doktoranrtlar, oliy ta'lim muassasalari ilmiy xodimlari ishtirok etdi.

Anjumanni O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti direktori, professor N.M.Mahmudov ochib berdi. Shundan so'ng O'zR FA vitse-prezidenti, professor B.Abduhalimov so'zga chiqdi. O'zbek adabiyotining buyuk namoyandasi Alisher Navoiy tavalludining 584 yilligiga bag'ishlangan ilmiy anjumanning asosiy maqsad va vazifalari, shuningdek, "she'riyat mulki sultoni"ning mumtoz adabiyotning adabiy-ma'rifiy jihatdan yuksalishidagi o'rni va o'zbek tilshunosligi ravnaqiga qo'shgan beqiyos hissasi haqida so'zladi va anjuman ishiga omad tiladi.



Anjumanga taqdim etilgan ma'ruzalarning mavzulari rang-barang bo'lib, ularda Alisher Navoiyning hayot yo'li, ijodi, asarlarining nashri va zamonaviy adabiyotda shoir siymosining yaratilishi xususidagi dolzarb masalalar muhokama qilindi.